

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**



**«TASDIQLAYMAN»**

Direktorlar kengashi raisi

T. X. Musadjanova

2025-yil « 5 » 03

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**“ONKOLOGIYA VA RADIOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI”**

(sikl bo‘yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(144-kredit)**

**Toshkent-2025 yil**

### **TUZUVCHILAR:**

L.X. Musadjanova

Respublikasida o'rtta tibbiyot farmatsevtika xodimlarini malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori, t.f.d. professor.

Z.A.Irmatova

Respublika Ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi Nur terapiya shifokori

D.T. Abdullayeva

Respublikasida o'rtta tibbiyot farmasevtika xodimlarini malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchi

### **TAQRIZCHILAR:**

N.S.Karimova

Respublika Ixtisoslashtirilgan Onkologiya va Radiologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi Nur terapiya shifokori

Z.Z.Imamova

Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

O'quv dasturi Respublika o'rtta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

## **1.Kirish.**

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos va talabga javob beradigan tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4310-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabr O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 maydagi “Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklariga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ - 183-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 22 noyabrdagi “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-402-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli, “O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturlari doirasida aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘quv dastur modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashi alohida e’tiborga olingan.

O‘quv dasturi “Onkologiya va radiologiyada hamshiralik ishi” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (onkologiya, gematologiya, immunologiya va radiologiyada hamshiralik ishi bo‘limlari hamshiralari, feldsherlar)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### **1.1. Maqsad:**

O‘qish natijasida “Onkologiya va radiologiyada hamshiralik ishi” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, bolalar va ayollar orasida

onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini, tibbiy yordam ko'rsatishni takomillashtirishga asoslanib, shu bilan bir qatorda ularga bu yo'nlishning hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarga sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

### **1.2. Vazifalar:**

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovasion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish;
- davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhislash;
- davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- amaliyotda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va direktiv hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay bilishni o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular bilim, malakaga asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- onkologik bemorlarni parvarishida etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, rasional, sog'lom ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish;
- sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- onkologik bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarini qo'llashni, zamonaviy davolash usullariga asoslangan holda parvarishlash va o'rgatish;
- aholi orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash,
- aholi o'rtasida dispanserizatsiya rolini tushuntirish va uni o'tkazish;
- onkologik bemorlarni parvarishlash rejasini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- aholi o'rtasida ekologiyani muhofaza qilishni, ekologik toza mahsulotlarni tanlashni o'rgatish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini takomillashtirish.

### **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari onkologik va nur terapiya bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va

lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

#### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, insoniylik tamoyillariga, kasbiy standartlarga va tibbiyot ilmining zamonaviy talablariga javob beradigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi va uni amalga oshirish;
- onkologik kasalliklarda hamshiralik ishi asoslarini bilishi va hamshiralik parvarishi rejalarini tuzish va amalga oshirish;
- nur terapiya bo'limlarida hamshiralik ishini amalga oshirish;
- onkologik kasalliklarni zamonaviy tekshirish usullarini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- aholining turli kontingentlari orasida onkologik kasalligini oldini olish maqsadida tibbiy tekshiruv –ko'riklarning ahamiyatini bilishi;
- aholining sog'lig'ini mustahkamlash, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga moslashishini (adaptatsiyasini) yaxshilash uchun ekologiyaning organizmga ta'sirini baholash usullarini mukammal bilishi;
- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo'lishi kerakligi;
- onkologik bemorlar xolatini baholash, asosiy simptom va sindromlarni ajratish, og'ir va terminal xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish, shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish.

#### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, davlat dasturining asosiy yo'nalishlari, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, onkologiyada davolash-profilaktik tibbiyot muassasalarining o'rta tibbiy xodimlarining mehnatini oqilona tashkil qilish, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

#### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy/a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

#### **1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:**

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashgʻulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom boʻladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan soʻng:** oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestasiyani topshirgan tinglovchilarga “Onkologiya va radiologiyada xamshiralik ishi” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TAʼLIM NATIJALARI**

### **2.1.Rejalashtirilayotgan taʼlim natijalaridan soʻng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim boʻlgan kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- oʻz-oʻzini baholash, tanqidiy tahlil qilish va toʻgʻri qarorlarni qabul qilish, aholi orasida onkologik kasalliklarni rivojlanishini oldini olish va erta aniqlash borasida profilaktik sanitariya targʻibot tadbirlarni olib borish, sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etadi;
- aholi oʻrtasida toʻgʻri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlash, oʻsib kelayotgan avlodni sogʻlomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi oʻrtasida tibbiy madaniyatni oshirish, koʻp tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish koʻnikmasini rivojlantirish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan toʻgʻri muloqot qilish hususiyatini takomillashtirish;
- onkologik bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan maʼlumot olish, global kompyuter tarmoqlarida maʼlumotlar olish koʻnikmasini rivojlantirish;
- konfidensial maʼlumotlar bilan ishlashda xamshiralik etikasi, qonunlar, meyoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish;
- onkologik kasalliklarni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy profilaktik ishlarni amalga oshirib dispanser koʻriklarini tashkil etishni mukammallashtirish;
- onkologik kasalliklari erta tashxis qoʻyishda bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash koʻnikmalari yangilash;
- nur terapiyaga tegishli meyoriy hujjatlarni malakali yuritish qobiliyatini oshirish;
- bemorlarni nur olishga ruhan va jismonan tayyorlash, nur olgandan keyingi davrda bemorlarni parvarish koʻnikmalari yangilash;
- onkologik bemorlarni oʻzgaruvchan ehtiyojlarini baholash, monitoring qilish hususiyati shakllantirish;
- shifokorgacha shoshilinch holatlarni oʻz vaqtida tashhishlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, hamda oʻrnatilgan tartibda hujjatlashtirish koʻnikmalarini mustahkamlash;
- bemorlarda ularning yoshi va jinsini hisobga olgan holda reabilitatsiya va profilaktika usullarini oʻtkazish;

- reabilitatsiya davomida bemorlar ahvolini monitoringini olib borish;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, axloqiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyatini mukammallashtirish;
- hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish.

### 3.DASTUR MAZMUNI

#### 3.1“Onkologiya va radiologiyada hamshiralik ishi ” kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Auditoriya mashg'ulotlari				Attestasiya
		Kredit	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
<b>1.0.</b>	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1.	Modul. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2.	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3.	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2		
1.4.	Modul: Sterilizasiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5.	Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1.	Modul. Onkologiya va radiologiya fanining zamonaviy yo'nalishlari va o'rta tibbiyot xodimining roli.	6	4	2		
2.2.	Modul. Radioaktiv nurlanishning biologik ta'sirlari.	6	2	4		
2.3.	Modul. Radiotexnologiyalar va zamonaviy tibbiy uskunalar: radioterapiya bo'limidagi innovatsiyalar.	12	4	8		
2.4.	Modul. Radioterapiyadan so'ng bemorlarni hamshiralik parvarishi va tiklanish bosqichlari.	14	6	8		
2.5.	Modul. Nurlanish terapiyasining fizikaviy asoslari va zamonaviy texnologiyalar.	12	6	6		
2.6.	Modul. Nurlanish bilan davolashda radiatsion halokatlar, ularning kelib chiqish sabablari va oldini olish strategiyalari.	6	2	4		
2.7.	Modul. Nurlanish bilan davolashda yuzaga keladigan infeksiyon asoratlar, ularning oldini olish va hamshiralik parvarishi.	12	6	6		

2.8.	Modul. Nurlanish terapiyasidan keyingi ovqatlanish mezonlari, og'riq sindromida hamshiralik yordami va teri parvarishi.	12	6	6		
2.9.	Modul: Kimyoterapiyaning asosiy tushunchalari. Kimyoterapiya bo'limida o'rta tibbiyot xodimining roli. Bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish.	18	6	12		
2.10.	Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	2	4		
<b>3.0.</b>	<b>Tanlov fanlar moduli.</b>	<b>4</b>			<b>4</b>	
3.1.	O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplangan, tuman(shahar) darajasida ambulator statsionar sharoitda ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari.	<b>4</b>			4	
<b>4.0.</b>	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

### **“Onkologiya va radiologiyada xamshiralik ishi ”malaka oshirish kursi o‘quv modullarining mazmuni**

#### **1.1.Modul:O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun,mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

#### **1.2.Modul:Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.**

Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo‘llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlar.Tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo‘llash.Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari hususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

**1.3.Modul:Sanitariya epidemiologik tartib me'yorlari va infeksiyon nazorat.**Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda hamshiralarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini

olish. Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi.

Kasalliklardan (COVID19) himoyalaniş tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

#### **1.4. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika havfsizligi.**

Sterilizatsiyani olib borish xonalari, tuzilishi, sterilizatsiyani bajarilish tartibi va texnika xavfsizligi qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Sterilizatsiyada qo'llaniladigan zamonaviy usullar. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish. Sterilizatsiya sifatini aniqlash usullari va o'tkazish tartibi.

**1.5. Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

#### **2.1. Modul: Onkologiya va radiologiya fanining hozirgi kundagi maqsad va vazifalari. Radiologiya va radioterapiya bo'limida o'rta tibbiyot xodimining vazifasi.**

Onkologiya va radiologiya fanining rivojlanish tarixi, maqsad, vazifalari, yutuqlari va istiqbol rejaları. Radioterapiya bo'limida yangi texnologik apparatlarni ishlatilishi. Havfli va havfsiz o'smalarni davolashda nur terapiyasini qo'llash. Ionlashtiruvchi nurlarning biologik ta'siri. Zamonaviy radiologiya va radioterapiya, qo'llash prinsiplari. Radiologiya va radioterapiya bo'limida o'rta tibbiyot xodimining vazifalari. Nur terapiyaga tegishli me'yoriy hujjatlarni malakali yurishning ahamiyati.

**2.2. Modul: Modul: Radioaktiv nurlanishning biologik ta'sirlari.** Radioaktiv nurlanishning biologik ta'sirlari. Nurlarning turlari. Onkologiya va radiologiya bo'limlarida xamshiraning bemorlar bilan kommunikativ muloqoti. Tibbiyot hamshirasining tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsientlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish xususiyatini takomillashtirish usullari. Bemorlarning psixologik, sotsial, ma'naviy va etik muammolarini aniqlash

#### **2.3. Modul: Radiofizika, elementar zarralar haqida tushuncha. Radioterapiya bo'limida yangi tibbiy texnologiyalar va apparatlar, ularning ishlatish texnikasi.**

Radiofizika, elementar zarralar haqidagi zamonaviy tushunchasi.

Atom, yadro, molekula xaqida tushunchalar. Ularning bo'linish darajalari va kuchlanishlar. Zarralar, zarralarning bir biriga nomutanosibliği, bo'linish darajasi va ularning o'zaro kuchlanishidan xosil bo'ladigan energiya. Elementar zarralar. Elektron zarralar, xossalari va ularning ta'sir doirasi. Biologik doza. Nurlanish dozasi.

Radioterapiya bo'limida yangi tibbiy texnologiyalar va apparatlar, ularning ishlatish texnikasi. Turli ionlashtiruvchi nur dastalari bilan ishlash qoidalari va ularning xususiyatlari. Nur dastalari tabiatiga mos bo'lgan radiatsion xavfsizlik qoidalari va ularga amal qilish chora tadbirlari.

**2.4. Modul:Radioterapiyadan so'ng bemorlarni hamshiralik parvarishi xususiyatlari. Xodimlarning dispanserizatsiyasi.**Radiologiya bo'limida nurdan keyingi bemorlarni davolash va parvarishlash hususiyatlari. Nurdan keyingi bemorlarni ob'ektiv tekshirish va laboratoriya tekshiruvlarga tayyorlash. Dozimetriya, tuzilishi va asoslari. Dozimetrik o'lchash usullari. Nur terapiya va radiologiya bo'limlari xodimlari dispanserizatsiyasi.Xodimlarni radioterapiya bo'limlarida olinishi mumkin bo'lgan nur dozasini nazorat qilish. Xodimlar va bemorlarni ortiqcha nurlanishdan saqlash. Dozimetrlarni saqlash va dozalarini aniqlash. Dozimetr bilan ishlash. Dozimetrik nazorat bo'lim muxandislari tomonidan rentgenradiologiya xonalarda (apparat tashqarisidagi xonalar, bo'limni xar bir xonasida) o'tkazilishi. Radioterapiyadan keyin bemor ovqatlanish mezonlari, hamshiralik parvarishi Radioterapiyadan so'ng bemorlarda kelib chikadigan asoratlarni oldini olish.

**2.5.Modul:Nur terapiyasining fizikaviy asoslari.Nur berish maydonlari. Nurni markazlashtirish.**

Ionizatsiyalovchi nurlarning tasnifi va ularning xususiyatlari. Nur berish maydonlari. Nur berish maydonlarini tanlashda har xil prinsiplarga amal qilish. Nur berish maydonlarini. Nur ta'siridan kelib chiqadigan shikastlanishlar.

Badan terisiga nur berilganda eritma ko'rinishida nur reaksiyasi paydo bo'lishi to'g'risida tushuncha. Terida yuzaga keladigan nur reaksiyasini kamaytirish xaqida tushuncha. Nur berish maydonlari chegaralari, bir-biriga tegmaydigan bo'lishi. Nur maydonini markazlashtirish. O'smalarni olgan joyga qarab nur berish maydonlarini bilish. Nur maydonini markazlashtirish sog'lom organlarni saqlab qolish. Bemorlar nur kartasi bilan ishlash, undagi nur dozasini o'qish va apparatlarda to'g'ri taqsimlash. Nur maydonlarini to'g'ri topish, o'lchangan xisob kitobdan adashmaslik, nur chegaralarini bir biriga tegmaydigan va kesishmaydigan xolda bemorni apparat stoliga yotqizish. Nur berish maydonlarinni to'g'ri qo'yish. Nur kartasiga bemorda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni to'liq va to'g'ri qayd etish.

**2.6.Modul: Nur bilan davolashda radiatsion halokatlar, ularning kelib chiqish sabablari va oldini olish chora-tadbirlari.**

Radioterapiya yo'nalishida bemorlarni nur berish taktikalari, nurlanish turlari ( vaqti, pozitsiyasi, lokalizatsiyasi). Texnik avariyalarda o'rta tibbiy xodimning taktikasi, kelib chiqishi mumkin bo'lgan xatoliklar.

Nur apparatlarida, bemorlarni jaroxat lokalizatsiyasiga qarab, apparatga to'g'ri yotqizish, shifokorning yozib bergan muolajalarini bemor o'z vaqtida qabul qilayotganini kuzatish va nur kartasiga qayd etish. Nur bo'limida avariya xolatda yoki xalokatda, o'rta tibbiyot xodimining xarakat taktikasi. Bemorni o'sma xujayralarini joylashgan joyiga va xiliga qarab nur terapevti belgilagan davo taktikasi ketma ketligini vaqtida bajarish. Bemorga shifokor radiolog tomonidan belgilangan radiatsion davo taktikasini to'g'ri olib borish va bemorning nur kartasiga qayd etish. Radiatsion avariya va uning kelib chiqish sabablarini o'z vaqtida shifokorga aytish va tez xavfsizlik chora tadbirlar ketma-ketligini bilish. Radiatsion nur berish va uning taktikalari Radioxalokatlar tushunchasi va ularni oldini olish

**2.7.Modul: Nur bilan davolashda kelib chiqadigan infeksiyon asoratlar va ularda hamshiralik parvarishi, palliativ yordam ko'rsatish.**

Nur bilan davolashda kelib chiqadigan infeksiyon asoratlar va ularda hamshiralik parvarishi. Nur bilan davolashda kelib chiqadigan pnevmoniya kasalligida xamshiralik parvarishi. Nur bilan davolashda kelib chiqadigan plevrit kasalligida xamshiralik

parvarishi Palliativ yordam ko'rsatish to'g'risida umumiy tushuncha, bemorlarga nur terapiyasi va uning asoratlari palliativ yordam to'g'risida tushuncha

## **2.8.Modul: Nur terapiyadan keyin bemor ovqatlanish mezonlari, og'riq sindromida hamshira yordami, teri parvarishi.**

Nur terapiyadan keyin bemorlarni to'g'ri ovqatlanish mezonlari, nur terapiya vaqtida bemorning ovqatlanish tartibi, bemor ovqatlanish ratsioni oqsillarga, sut maxsulotlariga, vitaminlarga boy bo'lishi. Og'riq sindromida hamshira yordami, nonarkotik va narkotik og'riq qoldiruvchi dori vositalarini qo'llash prinsiplari. Og'riq sindromida hamshira yordami, teri parvarishi. Bemorlarda gigienie muolajalar o'tkazish

## **2.9.Modul: Kimyoterapiyaning asosiy tushunchalari. Kimyoterapiya bo'limida o'rta tibbiyot xodimining o'rnini.Bemorlarga palliativ yordam ko'rsatish.**

Kimyoterapiya va uning o'tkazish maqsadlari. Kimyoterapiya bo'limi hamshirasining vazifalari. Kimyoterapiya preparatlarining turlari. Kimyoterapiya preparatlarining tasnifi. Kimyoterapiyani amalga oshirish yo'llari, asoratlari. Kimyoterapiyadan keyingi bemor parvarishi. Kimyoterapiyadan keyingi bemorlarni ovqatlanish xususiyatlari . Palliativ yordam tushunchasi. Palliativ yordamning JSSTbo'yicha asosiy tamoyillari va vazifalari.Og'ir bemorning holatini baholash va ularning ehtiyojlarini aniqlash.Hamshiralik parvarishini olib borish.

## **2.10.Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi.Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash,asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish.Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish: O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish. Hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish.Terminal holatlar,klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algortmi.

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEdagogik TA'MINOTI**

### **4.1. O'quv bazalari:**

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:**

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar.Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar,

tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko‘rinishi, vaziyatli masalalar, test savollari. Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

### **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:**

#### **4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4310-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.
3. “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

#### **4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Ziyadullayev. SH.X. Raximov. N.M.”Onkologiya hamshiralik ishi”. Samarqand.2023 y.
2. M.D.Jurayev. H.N.Abdullayev.”Onkologiya hamshiralik ishi”. Toshkent.2019 y.
3. T.N.Ilyosov. “Rlinik radiologiya asoslari” Toshkent.2010 y.
4. T.Y. Umarova va boshq. Xamshiralik ishi. Toshkent-2005.
5. В.М.Виноградов. Перспективные методики лучевой терапии. Практическая онкологияТ.8.№ 4 – 2017.
6. Г.Е.Труфанов, М.А.Асатурян,Г.М.Жаринов.Лучевая терапия. Москва.2015г.
7. Р.С.Домникова, М.Г.Скорородова, И.О.Наследникова. Руководство к практическим занятиям по общей и медицинской радиобиологии. Учебное пособие под редакцией академика РАМН, профессора В.В. Новицкого. Томск. 2014.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Проф. А.Е. Сосюкина. Клиническая Радиология 2018 “Гэотар-Медиа”
2. Проф. Г.Е. Труфанова Лучевая терапия 2012 “Гэотар-Медиа”
3. Тарутин И.Г. «Радиационная защита при медицинском облучении». – Минск, Высш. Школа,2015г.
4. Сосюкина А.Е.«Клиническая радиология» М.: М, 2008г.
5. Лясс Ф.М. «Радиационные поражения человека» М.: ИздАТ, 2001г.
6. Ильина Л.А. «Радиационная медицина» – М.: ИздАТ, 2011г
7. Васин М.В. Средства профилактики и лечения поражений» –М., 2013г.
8. Булаков Л.А., Калистратова В.С. «Радиоактивное излучение и здоровье»
9. Эрик К. Хансен, Мэк Роач III. Под редакцией проф. А.В. Черниченко Лучевая терапия в онкологии 2014 «Гэотар-Медиа», Springer.

1. Т.Ү. Умарова ва бoшq. Хамширалик иши. Toshkent-2005.
2. Н.Б. Садикова. 10000 советов медсестре по уходу за больными. Минск-2004.
3. Г.Е. Труфанов, М.А. Асатурян, Г.М. Жаринов. Учебник. Лучевая терапия. Том -2. Москва.2015г.
4. Булаков Л.А, Калистратова В.С. «Радиоактивное излучение и здоровье»
5. В.М.Виноградов. Основные направления развития лучевой терапии

#### **4.3.3. Elektron ta'lim resurslari**

[www.radiomed.ru](http://www.radiomed.ru), [www.radiographia.ru](http://www.radiographia.ru).

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

[www.medi.ru](http://www.medi.ru)

[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)

[www.medscape.com](http://www.medscape.com)

[www.medland.ru](http://www.medland.ru)

[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)

[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology)

[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru)

## **5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar, o'tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.